

Talaba qizlarning kiyinish odobi

Kiyinish madaniyati – insonning tashqi ko‘rinishi, ma’naviy dunyosi , estetikasi, axloqiy sifatlari va salohiyatini ochib beradi. Kiyinish madaniyatiga bo‘lgan qarash insonning go‘zallik, nafosat, odob borasidagi ko‘z qarashlarini ifoda etadigan omil hamdir. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda kiyimlar ham, kiyinishga bo‘lgan e’tibor va talab ham o‘zgarib bormoqda. Qizlarimizning hayo va ibosi eng katta boylik. Bu ularning yurish-turishi va ko‘rinishi kiyinishida, muomalasida o‘z ifodasini topadi. Qizlarimiz bilan shu xususda o‘tkaziladigan tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. 2020 yil 30 -oktyabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xujaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti GM fakul’teti xotin-qizlar kengashi tomonidan 1-kurs talaba qizlari o‘rtasida «Talaba qizlarning kiyinish odobi» mavzusida onlayn suhbat o‘tkazildi. Tadbir davomida kiyinish odobi – insonning ma’naviyati va didi, dunyoqarashini belgilashi insonni muvaffaqiyatga erishishida muhim omillardan biri ekanligi, ish va o‘qish joylarida kiyinishning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida fikrlar bildirildi. Bu borada "Gidravlika" kafedrasida professori I. Axmedjojaeva tomonidan talaba qizlarimizga kerakli maslahat va yo‘l-yo‘riqlar berildi.



Suhbat davomida talaba qizlarning qiziqarli savollariga «Olima ayollar» klubi rahbari dotsent U. Sangirova ma’ruza qildilar. Ma’ruza vaqtida klubning maqsadi, rejalari, institutda talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar to‘g‘risida tushunchalar berib o‘tdilar. Suhbat juda maroqli tarzda davom etdi. Bunday tadbirlarning uzluksiz ravishda tashkil etilishi rejalashtirildi.

TIQXMMI matbuot xizmati